

AYOLLAR HUQUQLARI MASALASINING TARIXI VA RIVOJANISHI

Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi, Guliston davlat pedagogika instituti

ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ ПРАВ ЖЕНЩИН

Бекмухаммадова Сабрина Исмоил кызы, Гулистанский государственный педагогический институт

HISTORY AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S RIGHTS

Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi, Gulistan State Pedagogical Institute



<https://orcid.org/0009-0009-1883-9465>

e-mail:

bekmuhammedova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola ayol-qizlarning tarixdan huquq va erkinliklari, ayollarning huquqiy ongi, ularning ijtimoiy faollik darajasi qanday bo'lganligini ifoda etadi. Ayollar huquqlari tarixdan qanday rivojlanganligi, ular bu huquqlardan qanday foydalana olganlari muhim ahamiyat kasb etgani va hozirgi ayollar huquqlari bilan qanday o'xshash jihatlar borligini ifoda etadi. Tarixdan ayollarga bu huquqlar qanday imkoniyatlar bergani alohida ta'kidlanadi. Ushbu maqolada ayollar huquqlarining tarixi va rivojlanish jarayonlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ayollar huquqlari, gender tengligi, ayollar huquqlari tarixi, feminizm harakati, BMT va ayollar huquqlari, saylov huquqlari, gender diskriminatsiyasi, patriarxal jamiyat.

Abstract: This article describes the rights and freedoms of women and girls from history, the legal consciousness of women, and their level of social activity. It describes how women's rights have developed from history, how they have been able to use these rights, how they have gained importance, and what similarities they have with women's rights today. It specifically emphasizes the opportunities these rights have given women from history. This article discusses the history and development processes of women's rights.

Keywords: women's rights, gender equality, history of women's rights, feminism movement, UN and women's rights, voting rights, gender discrimination, Patriarchal society.

Аннотация: В статье описываются права и свободы женщин и девочек на протяжении всей истории, их правосознание и уровень их социальной активности. То, как развивались права женщин на протяжении истории, имеет важное значение с точки зрения того, как они могли осуществлять эти права и в чем их сходство с правами женщин сегодня. В нем особо подчеркиваются возможности, которые эти права предоставляли женщинам на протяжении всей истории. В статье обсуждается история и развитие прав женщин.

Ключевые слова: права женщин, гендерное равенство, история прав женщин, феминистское движение, ООН и права женщин, избирательные права, гендерная дискриминация, патриархальное общество.

KIRISH. Jamiyatimizning har bir a'zosining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish zarurati barchamizga ayon. Har bir hodisaning boshlanishi uning tarixidan dalolat beradi. Ayollar huquqlari inson huquqlarining ajralmas qismi bo'lib, tarix davomida turli bosqichlardan o'tgan. Turli davrlarda ayollarning huquqlari cheklangan yoki inkor etilgan bo'lsa-da, bugungi kunda gender tengligi va ayollar

huquqlarini ta'minlash borasida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon jamiyatimizning har bir fuqarosining huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksalishini taqozo etib kelayotgani barchamizga sir emas. Xalqimiz "Tarixsiz kelajak yo'q" deb bejizga aytmaydi. Tarix borki, bugun bor.

TADQIQOT METODLARI. Ushbu maqola tarixiy va analitik tadqiqot metodlariga asoslangan. Turli xil manbalar, jumladan, ilmiy maqolalar, kitoblar va huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Tadqiqotda ayollar huquqlarining tarixiy rivojlanishi, gender tengligi masalalari va feministik harakatlarning roli o'rganilgan.

Ayollar huquqlari deganda – bu ayollarning erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo'lishini ta'minlaydigan huquqlar majmui tushuniladi. Qadimgi jamiyatlarda ayollar huquqlari tarixi haqida keltirib o'tadigan bo'lsak, bu sohada turli xil manbalar va tadqiqotlar mavjud. Masalan, Gerda Lernerning "The Creation of Patriarchy"¹ asarida patriarxatning shakllanishi va ayollar huquqlarining cheklanishi tarixi chuqur tahlil qilingan.

NATIJALAR. Qadimgi jamiyatlarda ayollar huquqlari turlicha bo'lgan. Masalan, qadimgi Misr va Yunoniston jamiyatlarida ayollar ma'lum darajada erkinlikka ega bo'lgan. Misrda ayollar erkin savdo-sotiq qilishi, mulkka egalik qilishi va sud jarayonlarida qatnashishi mumkin bo'lgan. Barbara Lesko "The Great Goddesses of Egypt"² kitobida qadimgi Misr ayollarining jamiyatdagi o'rnini batafsil yoritib bergan. Bu Misr ayollarining boshqa davlatlarga nisbatan tez sur'atlarda o'sishiga sababchi bo'lgan. Yunonistonda esa ayollar huquqlari juda cheklangan bo'lib, ular siyosiy jarayonlarda chetda qolgan. Bu ularning qoloqlashishiga sababchi bo'lgan. Biroq, Spartada ayollar muayyan huquqlarga ega bo'lishgan. Rim imperiyasida ularning huquqlari juda cheklangan edi. Rim davlatida ayollar mulk va meros huquqiga ega emas edi, ammo keyinchalik ba'zi qonunlar ularning huquqlarini kengaytiradi. Jane F.Gardnerning "Women in Roman Law and Society"³ asari Rim huquqida ayollarning o'rnini ochib beradi. O'rta asrlarda ayollar ilm-fan va ta'limdan chetlatilgan, faqat dindor ayollargina ta'lim olishgan. Eileen Powerning "Medieval

Women"⁴ asari O'rta asrlarda ayollarning ahvoli haqida ma'lumot beradi. Ayollar odatda uy bekasi yoki xizmatkor sifatida faoliyat yuritgan, lekin shifokor yoki huquqshunos bo'lishlari aslo mumkin bo'lmagan. Ayollar ko'pincha majburiy nikoh va erlarining ustunligi qonun bilan belgilangan oilaviy tizimga ega bo'lgan. O'rta asrlarda esa, patriarxal tuzum mustahkamlanib, ayollar asosan oilaviy va diniy an'analar doirasida qolgan. O'rta asrlarda ayollar huquqlari keskin cheklangan edi. Patriarxat kuchayganligi sababli ayollar faqatgina oilaviy masalalar bilan mashg'ul bo'la olishgan. Biroq, ayrim ayollar qiyinchiliklar yuz bersa ham o'z huquqlarini himoya qilishga harakat qilishgan.

MUHOKAMA. Ayollar huquqlarining himoya qilinishi va harakatlar. XVIII-XIX asrlarda Yevropada va Amerikada ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha dastlabki harakatlar boshlanadi. Bu davrda Mary Wollstonecraftning "A Vindication of the Rights of Woman"⁵ kabi asarlari ayollar huquqlari uchun kurashning dastlabki namunasi bo'ldi. Fransuz inqilobida "Inson va fuqarolar huquqlari deklaratsiyasi"da faqat erkaklar huquqlarigina tan olinadi. Shundan so'ng Olympe de Gouges tomonidan "Ayollar huquqlari deklaratsiyasi" e'lon qilinib, teng huquqlarini ayollar talab qilishadi. 1848-yilda AQSHning Seneka-Fols shahrida bo'lib o'tgan anjumanda ayollar saylov huquqiga ega bo'lish uchun birinchi marotaba jiddiy kurash olib borishadi. Bu voqea ayollar huquqlari harakatining muhim bosqichi bo'ldi va "Declaration of Sentiments" qabul qilindi.

1920-yilda AQShda va 1918-yilda Buyuk Britaniyada ayollarga ovoz berish huquqi rasman beriladi. Miriam Schneirning "Feminism: The Essential Historical Writings"⁶ kitobi ayollar huquqlari harakatining asosiy yozuvlarini o'z ichiga oladi. XX asr ayollar huquqlari uchun tub burilish davri bo'ladi. Saylov huquqi bu ayollar ovoz berish va saylanish huquqiga ega bo'lishidir.

¹ Lerner, Gerda. *The Creation of Patriarchy*. New York: Oxford University Press, 1986.

² Barbara S. Lesko. *The Great Goddesses of Egypt*. University of Oklahoma Press, 1999.

³ Jane F. Gardner. *Women in Roman Law and Society*. Indiana University Press, 1986.

⁴ Eileen Power. *Medieval Women*. Published by Cambridge University Press, 1975.

⁵ Mary Wollstonecraft. *A Vindication of the Rights of Woman*. Boston: Peter Edes for Thomas and Andrews. 1792.

⁶ Miriam Schneir. *Feminism: The Essential Historical Writings*. Random House, Incorporated, 1972.

1945-yilda BMT tuzilgach inson huquqlari bo'yicha gender tengligiga alohida urg'u berishadi. Gender tengligi bu erkaklar va ayollarning hamda barcha jinsiy guruhlarining huquq va imkoniyatlarda teng bo'lishini anglatadi ⁷. Gender tengligi tushunchasi jamiyatning barcha siyosiy-iqtisodiy, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy hayotda ayollar va erkaklarning teng huquq va majburiyatlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir. Gender tengligi harakatlari XX asr ayollar huquqlari rivojida tub burilish yasaydi. 1948-yilda qabul qilingan BMTning "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da ayollar va erkaklarning teng huquqlari e'tirof etildi. 1979-yilda esa BMT tomonidan "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida konvensiya" (CEDAW) qabul qilindi. Bu hujjat ayollar huquqlarini xalqaro darajada mustahkamlashga yordam berdi.

Zamonaviy jamiyatda ayollar huquqlari ko'plab mamlakatlarda konstitutsiyaviy darajada kafolatlangan. Biroq, hali ham dunyoning ayrim hududlarida gender tengligi bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, mehnat bozorida ayollar diskriminatsiyaga uchraydi, gender asosidagi zo'ravonlik holatlari uchraydi. Shuning uchun ham gender tengligini ta'minlash bo'yicha global miqyosda islohotlar davom etmoqda. Ta'lim va iqtisodiy erkinlik borasida ham ayrim davlatlarda cheklovlar mavjud bo'lib, ular olib tashlanmagan⁸.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, agar ayol kishi ilmi bo'lsa, butun bir jamiyat ilmi bo'ladi, agar erkak ilmi bo'lsa, bir oila ilmi bo'ladi. Ayollar huquqlari tarixiy jihatdan uzoq va murakkab rivojlanish jarayonini bosib o'tgan. Bugungi kunga kelib, ularning huquqlari qonunlar bilan himoya

qilinmoqda, ammo hali ham oldinda gender tengligini to'liq ta'minlash yo'lida ko'plab ishlarni amalga oshirish zarur. Shu sababli, jamiyat barcha a'zolari ushbu masalaga e'tibor qaratishi lozim. Jamiyatdagi rivojlanishda ayollarning faolligi muhim o'rin tutadi. Ayollarga teng imkoniyat yaratish nafaqat inson huquqlari masalasi, balki har taraflama kalit hisoblanadi. Kelajakda yanada teng huquqli va adolatli jamiyat qurish uchun barcha darajadagi hukumatlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati birgalikda harakat qilishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lerner, Gerda. The Creation of Patriarchy. New York: Oxford University Press, 1986.
2. Barbara S. Lesko. The Great Goddesses of Egypt. University of Oklahoma Press, 1999.
3. Jane F. Gardner. Women in Roman Law and Society. Indiana University Press, 1986.
4. Eileen Power. Medieval Women. Published by Cambridge University Press, 1975.
5. Mary Wollstonecraft. A Vindication of the Rights of Woman. Boston: Peter Edes for Thomas and Andrews. 1792.
6. Miriam Schneir. Feminism: The Essential Historical Writings. Random House, Incorporated, 1972.
7. Mansurov A. Development stages of migration from a historical point of view //News of the NUUZ. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. – C. 108-111.
8. Isaxova S.M., Bekmuhammadova S.I.Q. Ta'limda xotin-qizlar ijtimoiy himoyasi va tenglik masalasining qonuniy mexanizmlari //Academic research in educational sciences. – 2024. – T. 5. – №. TSUE Conference 1. – C. 71-73.

⁷ Mansurov A. Development stages of migration from a historical point of view //News of the NUUZ. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. – C. 108-111.

⁸ Isaxova S. M., Bekmuhammadova S. I. Q. Ta'limda xotin-qizlar ijtimoiy himoyasi va tenglik masalasining qonuniy mexanizmlari //Academic research in educational sciences. – 2024. – T. 5. – №. TSUE Conference 1. – C. 71-73.